

O'QUVCHILARDAGI IJODIY QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI

G'aniyeva Nargiza Alijonovna

*Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va
texnologiyalar universiteti o'qituvchisi*

E-mail: ganiyevanargiza553@gmail.com

Egamqulova Malikabonu Elyor qizi

*Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va
texnologiyalar universiteti,*

Pedagogika yo'nalishi 3-bosqich talabasi

Annotatsiya. Ta'lim jarayonida o'quvchilarning mustaqil fikrlashi, kreativ tafakkuri va ijodiy faoliyatini shakllantirish muhim omil sifatida qaraladi. Shuningdek, ijodiy qobiliyatni rivojlantirishda innovatsion pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlar, muammoli ta'lim hamda mustaqil ta'lim faoliyatining o'rni tahlil qilinadi. Ushbu jarayonda o'qituvchi tomonidan samarali metod va usullardan foydalanish o'quvchilarning ijodiy fikrlashi, tashabbuskorligi va bilimlarni mustaqil egallash ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu sababli, o'qituvchining pedagogik mahorati va ta'lim jarayonini to'g'ri tashkil etish orqali o'quvchilarning ijodiy fikrlashini rivojlantirish imkoniyatlari yoritib berilgan.

Аннотация. Важным фактором в образовательном процессе рассматривается формирование самостоятельного мышления, творческого мышления и творческой активности учащихся. Также анализируется роль инновационных педагогических технологий, интерактивных методов, проблемно-ориентированного обучения и самостоятельной учебной деятельности в развитии творческих способностей. Использование учителем эффективных методов и техник в этом процессе способствует развитию творческого мышления, инициативности и самостоятельного приобретения знаний у учащихся. Таким образом, подчеркиваются возможности развития творческого мышления учащихся посредством педагогических навыков учителя и правильной организации образовательного процесса.

Abstract. The formation of independent thinking, creative thinking and creative activity of students in the educational process is considered an important factor. Also, the role of innovative pedagogical technologies, interactive methods, problem-based learning and independent educational activities in the development of creative abilities is analyzed. The use of effective methods and techniques by the teacher in this process serves to develop students' creative thinking, initiative and independent acquisition of knowledge. Therefore, the possibilities of developing students' creative

thinking through the pedagogical skills of the teacher and the correct organization of the educational process are highlighted.

Kalit so'zlar. Kreativlik, ijodkorlik, boshlang'ich ta'lim, ijodiy qobiliyat, o'quvchilar, qobiliyatlar, ijodiy ta'lim, psixologik- pedagogik, ijodiy faoliyat.

Ключевые слова: Творчество, креативность, начальное образование, творческие способности, учащиеся, способности, творческое образование, психолого-педагогический подход, творческая деятельность.

Keywords: Creativity, creativity, primary education, creative abilities, students, abilities, creative education, psychological and pedagogical, creative activity.

Kirish. Bugungi kunda pedagogika fanida o'quvchilarning ijodiy qobiliyatini rivojlantirishning turli metod va texnologiyalari ishlab chiqilgan bo'lib, ular ta'lim jarayonini samarali tashkil etishga xizmat qiladi. Interfaol metodlar, muammoli vaziyatlar, loyihaviy faoliyat va innovatsion pedagogik texnologiyalar o'quvchilarning ijodiy fikrlashini rivojlantirishda muhim vosita hisoblanadi. Hozirgi globallashuv va axborot texnologiyalari jadal rivojlanayotgan davrda ta'lim tizimi oldiga yangi va muhim vazifalar qo'yilmoqda. Zamonaviy jamiyatda nafaqat bilimli, balki mustaqil fikrlaydigan, yangicha g'oyalar yarata oladigan, muammolarga ijodiy yondasha oladigan shaxslarni tarbiyalash muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli ta'lim jarayonida o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish dolzarb pedagogik masalalardan biri hisoblanadi. O'quvchilarning ijodiy qobiliyati ularning mustaqil fikrlashi, tasavvuri, yangi g'oyalarni ilgari surishi hamda muammoli vaziyatlarga yangicha yondashuv topishida namoyon bo'ladi. Chunki zamonaviy jamiyat ijodiy fikrlay oladigan, yangilik yaratishga intiladigan va muammolarga mustaqil yechim topa oladigan shaxslarni talab etmoqda. Shu sababli ta'lim jarayonida o'quvchilarning ijodiy salohiyatini rivojlantirish pedagogik jarayonning asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda. Bugungi globallashuv sharoitida har bir inson, ayniqsa o'sib kelayotgan yosh avlod nafaqat, zamonaviy bilimlarga ega bo'lishi, balki mustaqil, tanqidiy ijodiy fikrlay olishi ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ijodiy fikrlashni rivojlantirish orqali o'quvchilarda faollik, mustaqillik, tashabbuskorlik, tanqidiy tahlil qilish, muammolarga kengroq nuqtai nazardan qarash kabi muhim shaxsiy sifatlar shakllanadi.

Adabiyotlar tahlili Ijodkorlik bu insonning qarorlar qabul qilishi, tushunish, qabul qilish va yangi g'oyalarni yaratish qobiliyatidir. Kundalik hayotimizda ijodkorlik o'zini zukkolik, maqsadlarga erishish, obyektlar va vaziyatlardan g'ayrioddiy tarzda foydalanib, umidsiz bo'lib tuyilgan vaziyatlardan chiqish yo'lini topish qobiliyati sifatida namoyon bo'ladi.

Elis Pol Torrancening so'zlariga ko'ra, ijodkorlik muammolarga, bilimlarning yetishmasligi yoki nomuvofiqlikka yuqori sezuvchanlik, ushbu muammolarni aniqlash va o'zgartirish yechim natijasini shakllantirishni o'z ichiga oladi. Shunday

qilib, intellekt va tafakkur, qobiliyat va ijod, ijodiy qobiliyatlar alohida tadqiq qilinmoqda va hattoki, ularning kompleks bajarilishiga bag'ishlangan tadqiqotlar ham mavjud.

D.B.Bogoyavlenskaya, Yu.U.Foxt Babushkin o'quvchilarning intellektual va ijodiy rivojlanishini muammolari bilan shug'ullanishgan. Ijodkor kishiga xos bo'lgan bu xususiyatlar faqat demokratik muloqot uslubi tufayli shakllanadi. Bunday holda, o'qituvchi insonning individual xususiyatlarini, uning tajribasini, ehtiyojlari va imkoniyatlarining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga oladi, shuningdek, u baholashda ob'ektiv, bolalar bilan aloqada ko'p qirrali va tashabbuskor bo'lishi kerak. Yangi avlodning intellektual-ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishning muhimligi va dolzarbligini ta'kidlovchi konseptual ijtimoiy pedagogik ishlar paydo bo'lmoqda.

G.Melxorn va X.Melxorn yosh avlodda ijodiy qobiliyatlarining rivojlannishi, hayotiy muvaffaqiyat garovi mavzusini M.G.Volkkova o'rganmoqda. Shunday qilib, Rossiyada maktab o'quvchilarning ijodiy rivojlanishi muammosi psixologik-pedagogik yo'nalishlarda o'z yechimini topmoqda. Ammo yuqori sinf o'quvchilarida shaxs kreativligi, eng muhimi, kreativlik – intellektual -ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish mavzusi tadqiq etilmay kelmoqda.

Zamonaviy tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, bolalarning ijodiy faoliyatini rivojlantirishning eng muhim pedagogik shartlari quyidagilardir:

- Faoliyatning mohiyatini o'zgartirish;
- Bolalarning ta'lim faoliyatida xayrixohlik muhiti;
- Jamoaning shakllanishi.

Ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishning pedagogik asoslari: Ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishda pedagogik yondashuvlar asosiy o'rinni egallaydi. Bu jarayon o'quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda tashkil etilishi kerak. Yosh bolalar uchun o'yinli usullar, ijodiy mashqlar va loyihalar samarali hisoblanadi. Misol uchun she'r yozish, rasm chizish, hikoyalar tuzish kabi mashqlarga jalb qilish ularning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Ijodiy qobiliyatlar nafaqat bolalarning shaxsiy rivojlanishida, balki ularning kelajakdagi kasbiy faoliyatida ham muhim rol o'ynaydi. Ijodiy qobiliyatlar insonning yangi g'oyalar, yechimlar va yondashuvlarni ishlab chiqish qobiliyatini anglatadi. Bu qobiliyatlar bolalarning intellektual, ijodiy va kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish jarayonida o'quvchilarning faolligini oshirish va ularning mustaqil fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratishimiz lozim. Chunki har bir o'qituvchining kreativ yondashuvi, darslarni kreativ usullar bilan tashkil etilishi, va o'quvchilarni doimiy ravishda rag'batlantirishi orqali amalga oshirilishi mumkin. Ijodiy fikrlashni o'lchash uchun psixologik vositalar mavjud; Psixologik amaliyot olamida eng mashhuri Pol Torrance testidir. Ushbu test quyidagilarni baholaydi:

- og‘zaki ijodkorlik
- obrazli ijodkorlik
- shaxsiy ijodiy qobiliyatlar:

ravonlik miqdoriy ko‘rsatkichdir, testlarda bu ko‘pincha bajarilgan vazifalarning turli xil yechimlar soni mavjud. O‘quvchilarning ijodiy qobiliyatini o‘rganishda birinchi navbatda, kuzatish metodi muhim sanaladi. O‘qituvchi dars jarayonida o‘quvchilarning qanday fikrlashi dars jarayonida savollarga qanday javob berishi, yangi g‘oyalarni taklif qilishi kabi jihatlarni kuzatadi. Bu orqali o‘quvchilarning ijodiy fikrlash darajasini aniqlash mumkin. Ijodiy qobiliyatlarni o‘rganishda **test va diagnostika usullari** ham qo‘llaniladi. Maxsus testlar orqali o‘quvchilarning mantiqiy fikrlashi, tasavvur qilish qobiliyati va muammoni hal qilish darajasi aniqlanadi. Bu usul o‘qituvchiga o‘quvchilarning qaysi jihatini rivojlantirish kerakligini ko‘rsatadi. Metodologik jihatdan bu jarayon **shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim, faol o‘qitish metodlari va innovatsion pedagogik texnologiyalarga** asoslanadi. Bunda o‘quvchi faqat bilim oluvchi emas, balki faol fikrlovchi va ijod qiluvchi shaxs sifatida qaraladi.

Ijodiy qobiliyatlar nazariyasi L.S.Vigotskiy, A.N.Leontov, D.B.Elkonin kabi mashhur olimlarning ishlarida yoritilgan. Yuqorida nomlari qayd etilgan olimlarning tadqiqotlarida o‘quvchilar kreativligi ijodkorlikning rivojlanishi kuzatilgan hamda unga shaxs rivojlanishining asosiy yo‘nalishi sifatida qaralgan. Psixologiyada ijod va ijodiy faoliyat muammosini o‘rganuvchi alohida yo‘nalish - ijodkorlik psixologiyasi yo‘nalishi vujudga keldi. Ijodkorlik psixologiyasining asosiy maqsadi psixologik qonuniyatlar, ijod jarayoni mexanizmi va kreativlikni o‘rganishdan iborat.

L.N.Azarovanning fikricha, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ijodiy individualligini rivojlantirish o‘yinli usullar, tasavvurni faollashtirish, o‘quvchilarga tanlov erkinligini berish va ijodiy faoliyatga rag‘batlantirish orqali amalga oshiriladi. Ijodiy faoliyatni shakllantirishda o‘qituvchi tomonidan maxsus shart-sharoitlar yaratish va bolalardagi yashirin iste’dodlarni yuzaga chiqarish muhim hisoblanadi. Bolalardagi ijodiy qobiliyatlarning rivojlanishi, taraqqiy etishi va uni rag‘batlantirish uchun pedagog-tarbiyachi, psixolog va ota-onalardan tizimlashtirilgan tamoyillariga rioya qilishlari tavsiya etiladi. Bugungi globallashtirilgan dunyoda ta’lim jarayonida o‘quvchilarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish dolzarb masalaga aylangan. Shaxsning ijodiy fikrlashi, yangi g‘oyalar yaratish qobiliyati va nostandart yechimlarni topa olish ko‘nikmalari muvaffaqiyat kaliti hisoblanadi. Ammo an’anaviy ta’lim tizimi, ko‘pincha, kreativ fikrlashni rivojlantirishga yetarli e’tibor qaratmay, standart bilimlarni o‘zlashtirishga urg‘u beradi. Shunday ekan, ta’lim jarayonida innovatsion yondashuvlarni qo‘llash orqali o‘quvchilarning kreativ tafakkurini shakllantirish zamon talabi hisoblanadi. Ijodkorlikni aniqlashda test sinovlaridan ham foydalanishadi. Ijodkorlik testi asosan, og‘zaki, grafik, raqamli materiallar yordamida, harakatlarni amalga oshirishga asoslangan insonning ijodiy qobiliyatini

aniqlashning standartlashtirilgan usuli hisoblanadi. O'quvchilarni yangi g'oyalar yaratishga, mustaqil fikrlashga va turli vazifalarni ijodiy tarzda hal qilishga undash muhimdir. Bu jarayon o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida samarali hamkorlikni talab qiladi. O'quvchilarning ijodiy qobiliyatini rivojlantirish samarali qiladi, nafaqat ularning bilim olish jarayoni balki, ularni yangi bilimlarni izlashga undaydi va ularning dunyoqarashini yanada kengaytiradi. Yangi interfaol metodlarni qo'llash, o'quvchilarning ijodiy qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi va ularning o'zgaruvchan dunyoga moslashishini ta'minlaydi. Agar dars jarayonida turli interfaol metodlar, ijodiy topshiriqlar, muammoli vaziyatlar va zamonaviy texnologiyalardan foydalanilsa, o'quvchilarning mustaqil fikrlashi va ijodiy yondashuvi yanada rivojlanadi. O'qituvchi o'quvchilarga erkin fikr bildirish, yangi g'oyalar taklif qilish va mustaqil ishlash imkoniyatini yaratib berishi kerak. Shunda o'quvchilar faqat bilim olibgina qolmay, balki o'z fikrini erkin bayon qila oladigan, ijodkor va faol shaxs bo'lib shakllanadi. Shuning uchun ta'lim jarayonida o'quvchilarning ijodiy qobiliyatini rivojlantirishga alohida e'tibor berish muhim hisoblanadi.

Tadqiqot natijalari va muhokama. Tadqiqot jarayonida o'quvchilarning ijodiy qobiliyatini aniqlash va baholash maqsadida pedagogik kuzatish metodi bilan bir qatorda Pol Torrance tomonidan ishlab chiqilgan ijodiy fikrlash testidan ham foydalanildi. Ushbu test o'quvchilarning ijodiy tafakkur darajasini, yangi g'oyalar yaratish qobiliyatini hamda muammolarga noodatiy yondashuvlarini aniqlashga xizmat qiladi.

Test natijalari shuni ko'rsatdiki, ijodiy topshiriqlar, muammoli vaziyatlar va interfaol metodlar qo'llanilgan darslarda o'quvchilarning ijodiy faolligi sezilarli darajada oshdi. O'quvchilar tomonidan berilgan javoblarning xilma-xilligi, yangi g'oyalar ilgari surilishi va mustaqil fikr bildirilishi ularning ijodiy fikrlash ko'nikmalari rivojlanayotganini ko'rsatdi.

Shuningdek, kuzatish jarayonida o'quvchilarning darsdagi ishtiroki, topshiriqlarga bo'lgan qiziqishi hamda muammolarni hal qilishdagi yondashuvlari tahlil qilindi. Olingan natijalar o'quvchilarning ijodiy qobiliyatini rivojlantirishda innovatsion pedagogik metodlardan foydalanish muhim ahamiyatga ega ekanligini tasdiqladi. Mazkur tadqiqotni amalga oshirish jarayonida pedagogik kuzatish, tahlil va taqqoslash metodlaridan foydalanildi. Ayniqsa, kuzatish metodi orqali o'quvchilarning dars jarayonidagi faolligi, ijodiy fikrlash darajasi hamda berilgan topshiriqlarga yondashuvi o'rganildi. Kuzatish natijalari shuni ko'rsatdiki, dars jarayonida interfaol metodlar va ijodiy topshiriqlardan foydalanish o'quvchilarning mustaqil fikrlashini faollashtiradi hamda ularning ijodiy qobiliyatini rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, guruhli ishlash, muammoli vaziyatlar yaratish va erkin fikr bildirish imkoniyatini beruvchi pedagogik muhit o'quvchilarning ijodiy faolligini oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qilishi kuzatildi. O'quvchilar tomonidan yangi g'oyalar taklif etilishi, masalalarga noodatiy yondashuvlar

bildirilishi ularning ijodiy tafakkuri rivojlanayotganini ko'rsatadi. Shuni takidlashimiz lozimki, o'quvchilarning ijodiy qobiliyatini rivojlantirishda o'qituvchining pedagogik mahorati, zamonaviy metodlardan foydalanishi hamda dars jarayonida ijodiy muhit yaratishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa va takliflar. Shuni takidlashimiz lozimki, ta'lim jarayonida interfaol metodlar, muammoli vaziyatlar yaratish, guruhli ishlash va ijodiy topshiriqlardan foydalanish o'quvchilarning ijodiy faolligini oshirishga ijobiy ta'sir ko'rsatishi aniqlanadi. Bu esa o'quvchilarning bilim olishga bo'lgan qiziqishini kuchaytirib, ularning mustaqil fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

Natijalarga asoslanib quyidagi takliflarni ilgari sursak, ta'lim jarayonida o'quvchilarning ijodiy fikrlashini rivojlantirishga qaratilgan interfaol metodlardan keng foydalanish, o'quvchilarga muammoli va ijodiy topshiriqlarni ko'proq berish,

dars jarayonida erkin fikr bildirish va ijodiy muhit yaratishga alohida e'tibor qaratish hamda o'quvchilarning ijodiy qobiliyatini aniqlash va rivojlantirishda zamonaviy diagnostik metodlardan foydalanish tavsiya etiladi. O'quvchilarda ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishimiz uchun quyidagi yondashuvlar muhim sanaladi.

Birinchisi bu muammoli vaziyatlar yaratish, yani bunda oddiy savollar o'rniga ochiq, tahlil talab qiluvchi savollar berish.

Ikkinchisi bu ijodiy topshiriqlar bunda hikoya tuzish, rolga kirish, o'xshatish metafora bilan ishlash.

Uchinchisi esa baholash tizimini yangilash bunda ijodiy fikrlar orqali ham rag'batlantirilmog'i zarur.

O'quvchilarning kreativ salohiyatini oshirish uchun ta'lim jarayonida innovatsion pedagogik texnologiyalarni keng joriy etish, ijodiy topshiriqlarni ko'paytirish va erkin fikrlash imkoniyatini yaratish zarur. Mazkur yondashuvlar nafaqat bilimlarni chuqur o'zlashtirishga, balki mustaqil, tanqidiy va ijodkor shaxsni shakllantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. N. Muslimov – “Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari”
2. Vigotskiy L.S. Ta'lim psixologiyasi. – Moskva: Pedagogika, 1991.
3. Ponomarev Ya.A. Ijodiy fikrlash psixologiyasi. – Moskva, 1976.
4. Muslimov N.A. Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari. – Toshkent, 2015.
5. Azarova L.N. Boshlang'ich maktab o'quvchilarining ijodiy individualligini qanday rivojlantirish kerak // Boshlang'ich maktab, 1998 yil, 4-son 80-81 betlar.
6. Mavlonova R., To'rayeva O., Xoliqberdivov K.lar “Pedagogika” darslik.
7. Toshkent. 2012- yil
8. Kaldibekova A, Xodjaev B “O'quvchilarning bilish faolligini oshirish yo'llari” (uslubiy qo'llanma) Toshkent 2006- yil.

10. Yo‘ldosheva J.R. Usmonova S.A., Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni
11. amaliyotga joriy qilish. –T: “Fan va texnologiya” nashriyoti. 2008-yil.
12. Karimov A.X. Bo‘lajak o‘qituvchilarning mustaqil faoliyatnko‘nikmalarini
13. shakllantirish muammolari va yechimlari.
14. Ponomarev Ya.A. Psixologiya tvorcheskogo myshleniya (Ijodiy fikrlash psixologiyasi). – Moskva: Nauka, 1976.
15. Torrance E.P. Torrance Tests of Creative Thinking. – Lexington: Personnel Press, 1974.
16. Azarova L.N. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ijodiy faoliyatini rivojlantirish. – Moskva: Prosveshcheniye, 2002.
17. Aliyeva E.G. Ijodiy qobiliyat va uning rivojlanish shartlari. – Toshkent: Fan, 2015.